

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

QUTLOV O‘RNIDA

*Abdig‘affor Kirgizbayev,
Nizomiy nomidagi TDPU rektori,
tarix fanlari doktori, professor*

HURMATLI QURDOSH QAHRAMONOV!

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti jamoasi Sizni bugungi qutlug‘ yoshingiz bilan qizg‘in tabriklaydi.

Barchaga ma‘lumki, universitetimiz qariyb 90 yildirki, pedagog kadrlar tayyorlaydigan yetakchi oliy ta‘lim tashkiloti sifatida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Bu dargohda mamlakatimiz va jahon miqyosida dovuq taratgan akademik-olimlar, professor-o‘qituvchilar ilmiy-pedagogik faoliyat yuritishadi. Zero mamlakatni barqaror rivojlanishidagi eng asosiy omillardan biri ta‘lim-tarbiya, ilm va innovatsiya hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda ustoz va murabbiylarning o‘rni nihoyatda katta. Mamlakatimiz rahbarining 2022-yil 21-iyun kuni “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida jamoamiz bir yoqadan bosh chiqarib, maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishda jonbozlik ko‘rsatayotgani sir emas.

Ayni vaqtda universitetimizda vakolatli xalqaro tashkilotlarni jalb qilgan holda bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi ilmiy va pedagogik ishlarni amalga oshirishda universitetimiz jamoasi, xususan, professor-o‘qituvchilarning hissasi katta. Shunday fidoyi, zakovatli va shogirdparvar ustozlarimizdan biri filologiya fanlari doktori, professor Qurdosh Qahramonov bugun qutlug‘ 70 yosh ostonasida turibdi. Olimni o‘tgan asrning saksoninchi yillaridan buyon yaxshi bilaman.

Qurdosh Qahramonovning ibratli hayot yo‘liga nazar tashlasak, shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, ustoz umr bo‘yi pedagogik faoliyat bilan ilmiy tadqiqot ishlarini bir maromda olib borgan. 1974-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (*hozirgi TDPU*)ning “*O‘zbek tili va adabiyoti*” fakultetini muvaffaqiyatli tugatib, bir muddat, ya‘ni, 1974–1979-yillar mobaynida Samarqand viloyati, Nurota tumanidagi 50, 62-maktablarda o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi, 1979–1989-yillar oralig‘ida esa O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida, 1989-yildan to bugungi kunga qadar esa Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakultetida dotsent, kafedra mudiri, professor vazifalarida samarali mehnat qilib kelmoqda. 50 yillik mehnat faoliyatining 35 yili o‘zi tahsil olgan universitetda

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

minglab talabalarga saboq berishga bag‘ishlanganligining o‘ziyoq ustozning ilm-ma‘rifat, ziyo taratishdek ulug‘ va mashaqqatli kasbga hamda universitetiga bo‘lgan mehr-u, sadoqatidan darak beradi. Shuningdek, Q.Qahramonov o‘ndan ziyod yosh ilmiy tadqiqotchilarga o‘zbek adabiyotining dolzarb muammolari yuzasidan mavzular berib, ularning filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini olish uchun yozilgan dissertatsion tadqiqotlariga ilmiy rahbar va maslahatchi bo‘lib kelmoqda. Shu jihatdan Q.Qahramonov universitetimizda o‘z ilmiy maktabini yarata olgan olimlardan biri sanaladi.

Olim ilm-fan, xususan, adabiyotshunoslikning adabiy tanqid, bolalar adabiyoti, adabiy jarayon yo‘nalishlarida olib borgan tadqiqotlari bilan o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Q.Qahramonovning monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma, risola va ilmiy maqolalari nafaqat, respublikamiz, balki, xorijiy olimlar va tadqiqotchilar tomonidan yuqori baholanmoqda. “Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti”, “Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari”, monografiyalari, hammualliflikda yozilgan “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligi, “Adabiy jarayon estetik talqin”, “Bolalikka oshufta ko‘ngil” (Qambar ota ijodiga chizgilar), hamkorlikda yaratilgan “Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon” “Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon” nomli tadqiqotlari, hammualliflikdagi “Ijod va e‘tiqod” (Abdusaid Ko‘chimov ijodiga chizgilar) kabi risola va monografiyalar, maqolalar to‘plami, respublika va nufuzli xorij jurnallarida chop etilgan yuzlab ilmiy maqolalari olimning falsafiy mushohadasi, badiiy-estetik didi, ilmiy salohiyatidan dalolat beradi.

Q.Qahramonov o‘zi ta‘lim bergan shogirdlari orasida ilmga, adabiyotga qiziqishi bo‘lganlarni birinchi kursligidayoq aniqlab, muayyan mavzu asosida tizimli tadqiqot ishi olib borishga undaydi. Birinchi marotaba maqola yozgan shogirdlarining ishlarini erinmay qayta-qayta tahrir qilib beradi, ularga to‘g‘ri yo‘nalishni ko‘rsatadi. Ayrim manba va asarlarni o‘z uyidagi shaxsiy kutubxonasidan olib kelib o‘qishga undaydi. Bu kitoblarning ko‘pchiligi ustozning qo‘liga qaytib kelmasligini bilsa-da, talabalarni ilm-ma‘rifatli qilishga, ilmiy ishga rag‘bat uyg‘otishga harakat qiladi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi va qator xorijiy jurnallarning tahririyat a‘zosi sifatidagi faoliyatingiz ham alohida e‘tirofqa sazovor.

Qurdoosh Qahramonov kamtar va kamsuqum, halol va zahmatkash inson sifatida jamoamiz orasida katta hurmatga ega. Men universitetimiz jamoasi nomidan qutlug‘ 70 yoshini qarshilayotgan ustoz murabbiyning adabiyotshunoslik ilmi yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarida hamda yosh avlodni tarbiyalashdek sharafli kasbiy faoliyatida bardavomlik, yangidan-yangi ijodiy parvozlar, mustahkam sog‘liq tilayman!